



## "BOBURNOMA JIOLARI"

**Mohigul Nazarova**

*Namangan viloyat Uchqo'rg'on tuman*

*26-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*



**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Zahiriddin Bobur ijodi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, uning ijodiga oid g'azallar tahlili ham berilgan.

**Kalit so'zlar:** Bobur, ijod, g'azal, aruz, vazn, tahlil, she'riy san'atlar.

O'zbek xalqining iftixori, suykli farzandi, ham ma'nani, ham jismonan yetuklikka erishgan bobomiz Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludiga 541 yil to'ldi. Bobur o'zbek mumtoz adabiyotining Navoiydan keying hassos va betakror shoirlaridan biridir. Mashhur tarixchi Mirzo Haydar ta'biri bilan aytganda : " turkey she'rni Amir Alisherdan keyin hech kim Bobur yozgan darajada yozgan emas"

Birinchi prizidentimiz I.Karimov Bobur bobomiz haqida shunday degan edi: "Bobomiz Zahiriddin Muhammad Bobur nomi bilan har qancha faxrlansak arziydi. O'zbek xalqining dovrug'ini dunyoga taratgan ajdodlarimizning biri o'laroq, ul zot bizni tariximizni qadrlashga, keljakka buyuk ishonch bilan qarashga o'rgatdi"

Umrining deyarli barcha qismini ot ustida ,mashaqqat-u zahmatlarda o'tgan bo'lsa-da, Bobur hazratlaridan biz avlodlarga ulkan badiiy hamda ilmiy asarlar, taqdir sinovlariga boy umr lavhalaridan saboqlar meros bo'lib qoldi. Bobur nomini dunyoga tanitgan asari "Boburnoma" hisoblanadi. Sharq adabiyotida, jahon adabiyotida "Boburnoma" o'xshashi yo'q asar sifatida mashhurdir. Ayni choqda bu asar o'zbek nasrining betakror durdonasidir. "Boburnoma"ning boshqa asarlardan afzal xususiyatlaridan biri qomusiy xususiyatga ega ekanligidadir. Yani asar tarixiy, badiiy, adabiy, tilshunoslik, biologik, zoologik, geografik asardir.

"Boburnoma" ning adabiyotshunoslikka bag'ishlangan qismining 58 bobida Mirzo Ulug'bek va uning noqobil o'g'li Abdulatif haqida bayt berilgan:

*Padarkush podshohiro napoyad,*

*Agar shoyad bo shash mohash napod.*



Tarjimasi:

*Otasining qotili podshoh bo'lolmas,*

*Agar bo'lsa olti oydan osholmas.*

"Boburnoma"ning boshqa asarlardan farqli xususiyatlaridan: voqealarning yilma-yil izchillik bilan bayon etilishi,materiyallarning mo'lligi va aniqligi kabi."Boburnoma" ana shuinday fazilatlari bilan Sharq madaniyatining noyob durdonasiga aylanib, jahon tillariga tarjima qilinib,jahon madaniyatining betakror asariga aylangan.